



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

HAYDAROVA SURAYYO ABDUSALOMOVNA¹

¹ Jizzax davlat pedagogika institute o'qituvchisi, TVChDPI erkin taqqiqotchisi, Surayyo.uz@mail.ru

GEOGRAFIYA FANI O'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada goeografiya fanining bugungi kundagi ahamiyati, shuningdek zamonaviy geografiya fan o'qituvchisi kasbiy kompetentligi hamda bu borada ilmiy faraz va qarashlar tahlil etilgan hamda muallifning mavzu yuzasidan shaxsiy qarashlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: geografiya, o'qituvchi, kompetentlik, ta'lim, davlat, jamiyat, professional, talaba, o'qitish sifati va miqdori, kasbiy funktsiya, zamonaviy ilm, metodologiya.

Аннотация: В статье анализируются важность географии сегодня, а также профессиональная компетентность современного учителя географии, а также научные гипотезы и взгляды на предмет, а также описывающая личные взгляды автора на предмет.

Ключевие слова: география, учитель, компетентност, образование, государство, общество, professional, student, качество и количество обучения, профессиональная функция, современная наука, методология.

Annotation: This article analyzes the importance of geography today, as well as the professional competence of a modern geography teacher and scientific assumptions and views in this regard, as well as the author's personal views on the subject.

Keywords: geography, teacher, competence, education, state, society, professional, student, quality and quantity of teaching, professional function, modern science, methodology.

Kirish (Introduction). XXI asrda barcha fanlarni ta'lim tizimida chuqur va har tomonlama zamonaviy metodlar asosida o'qitish va o'rgatish, ta'limdagi zamonaviy metodlaridan samarali foydalanish dvar talabigina bo'lib qolmay real ehtiyoj manbaidir. Har bir fanning o'ranish ob'ekti qanday, kimga va nimaga qaratilgan bo'lishidan qat'iy nazar inson omili birinchi o'rinda turadi. Xususan, geografiya ta'limi XXI asrda har bir fuqaroni hayotiy fuqarolik pozitsiyasini belgilashda va o'z faoliyatiga tanqidiy nuqtai nazardan yondashishini ta'minlaydi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy dunyoda jamiyatning (shaxs, guruh, davlat) har bir a'zosi borgan sari katta oqibatlariga olib keladigan qarorlarni qabul qilishda tiyilish printsipiga rioya qilish, har bir qarorlari inson omili va tabiat bilan uyg'unligi ta'minlanishi lozimligi yuzasidan ta'limotini amalga oshirish borasida faollashmoqda.

Biroq bugungi kun geografiya ta'limining hozirgi holati yuqori darajada deb aytaolmaymiz. Mamlakatning har bir hududida geografiya ta'limi sohasida mukammallik namunalarini aniqlash mumkin bo'lsada, zamon talabiga muvofiq kelmaydi. O'quvchilar olgan geografik bilim, o'qitish sifati va miqdori, o'qituvchilarni geografiyani o'qitishga tayyorlash va o'quv materiallarining sifati zamonaviy dunyo talablariga javob bermasligi hamda kadrlarni professional darajada tayyorlash uchun etarli emas. Geografik tushuncha va ko'nikmalarni

o'zlashtirishning o'zi bizning o'quv tizimimiz o'quvchilarga geografiya to'g'risida etarli ma'lumot bera olmaganligini tasdiqlaydi. Dunyoning eng rivojlangan mamlakati Amerika Qo'shma Shtatlarda bu masala ilmiy jihatdan tadqiq etilgan bo'lib, olingan natijalarga ko'ra amerikalik talabalarning 30 foizdan kamrog'i geografiyani yaxshi bilishi, 70 foizdan ko'prog'i o'zlariga va oilalariga g'amxo'rlik qilish, ish joylarida tegishli qarorlar qabul qilish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish jarayonida talab qilinadigan oddiy geografik fikrlashni amalga oshirishga tayyor emasliklari aniqlangan[1].

Ushbu tadqiqot natijasidan kelib chiqib rivojlanayotgan mamlakatlarda bu masalada etarlicha kamchiliklar mavjud bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishimiz tabiiy holdir.

Bugungi kunda o'qituvchi rolining o'zgarishi, uning ijtimoiy va kasbiy funksiyalarining kengayishi, ya'ni ilmiy-uslubiy, o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy, kognitiv va kommunikativ rivojlanishiga qaratilgan ilmiy-pedagogik vazifalarning mohiyatini aniq anglashimiz lozim. Oddiy qilib aytganda bo'lg'usi o'qituvchini ya'ni geografiya fan sohasi bo'yicha mutaxassisni tayyorlash uchun rivojlanayotgan ta'lim muhitini maqsadli tashkil etish va zaruriy kometentlikka ega bo'lgan shaxsni shakllantirish masalasi kun tartibiga qo'yilmog'i zarur.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Zamonaviy ilm-fan ta'lim tizimini takomillashtirishning metodologik asosi sifatida qabul qilingan ta'limga kompetentsiyaviy yondashuv borasida bir qator ilmiy - nazariy qarashlar mavjud bo'lib, A.V.Xutorskoy kompetentlikning turlarini tavsiflab, ular orasida etakchi o'rinni bilish kompetentsiyasi egallaydi degan bo'lsa, N.U.Zaichenko o'quvchi qobiliyatni shakllantirishni eng muhim vositasi bu zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishning integral usuli hisoblanadi degan qarashni ilgari suradi[17].

Ammo geografiyani maktab o'quvchilariga o'qitishda ushbu yondashuvni amalga oshirish imkoniyati nazariy jihatdan etarli darajada asoslanmagan. Geografiya darsida maktab o'quvchilarining bilish kompetentsiyasining shakllari va usullarini belgilaydigan ko'rsatmalar mavjud[15].

Bizningcha kasbiy kompetentsiya vazifalarni samarali hal etish hamda mashg'ulotlarni o'zlashtirishning funktsional tayyorgarlikka asoslangan shaxsiy va kasbiy fazilatlarining murakkab dinamik birlashgan tizimi sifatidir. O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi turli xil vaziyatlarda yuzaga keladigan muammo va odatdagi vazifalarni kasbiy bilim va ko'nikmalar, ta'lim va hayot tajribasidan maqsadli foydalangan holda qadriyatlar tizimiga muvofiq ravishda hal qilishda namoyon bo'ladi. SHuni ta'kidlash kerakki, ushbu tuzilishda qadriyatlar munosabati, kasbiy va qadriyat yo'nalishlari, o'qituvchi faoliyatining motivlari maktab o'quvchilarining ongiga ta'sir qiladi hamda ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish, o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari har tomonlama ta'minlangan taqdirda muvaffaqiyatli bo'ladi, ya'ni, o'quv maqsadlarini aniq belgilash, tegishli o'quv tarkibini tanlash, o'quv-uslubiy ta'minotni yangilash, samarali metodlarni tanlash, o'qitish texnikasi va ta'lim faoliyatini tashkil etish shakllari, tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilar. SHunday qilib, kompetentsiya faqat bilim yoki ko'nikma bilan chegaralanmaydi. Kompetentsiya - bu aniq maqsad, motiv, qiziqish, mavjud bilim, faoliyat nazorati va irodaviy yo'naltirilganlikni tartibga solish usullarini o'zida mujassam etgan shaxsning shaxsiy sifatidir.

Geografiya fanini o'qitishda ta'limning barcha bosqichida kognitiv yondashuvdan foydalanish zamon talabidan kelib chiqqan hoda maqsadga muvofiq bo'lidi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlilga ko'ra ta'limda kognitiv kompetentsiyaga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular:

- o'quvchining mustaqil bilim faoliyati sohasidagi kompetentsiyalar to'plami[16];
- samarali va reproduktiv bilish, tadqiqot, intellektual faoliyat[15];

- ma'lumot olish, qayta ishlash, zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan birga olib boriladigan haqiqiy ta'lim va kognitiv muammolarni hal qilish bo'yicha faoliyat[12];

- talabaning o'zini o'zi boshqaradigan bilim faoliyati sohasidagi shaxsiy tajribasi[7];

- kognitiv faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lish, dunyoning yaxlit qiyofasini anglash qobiliyati va hayotiy muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlardan foydalanish[11].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bizning fikrimizcha, kognitiv kompetentsiya - bu talaba tomonidan anglanadigan haqiqiy ob'ektlar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan mantiqiy, uslubiy, evristik, umumiy ta'lim faoliyati elementlarini o'z ichiga olgan mustaqil bilim faoliyati sohasidagi talabalar kompetentsiyalarining yig'indisidir. Geografik ta'limni tashkil etishda maqsadni belgilash, tashkil qilish, rejalashtirish, loyihalar yaratish, o'quv-bilish faoliyatini tahlil qilish, aks ettirish, o'z-o'zini baholash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda talaba samarali faoliyatning ijodiy qobiliyatlarini o'zlashtiradi, to'g'ridan-to'g'ri bilim olish, nostandart vaziyatlarda harakat qilish texnikasini, muammolarni echishning evristik usullarini o'zlashtiradi. Ushbu kompetentlik doirasida talablarda tegishli funktsional savodxonlik darajasi shakllanib dalillarni farqlash qobiliyati, o'lchash ko'nikmalari, bilishning ehtimollik nazariyasiga tayanish malakasi, statistik tahlil va boshqa usullaridan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda pedagogik ta'lim o'qituvchidan professional kasbiy tayyorgarlikdan tashqari, ilmiy salohiyatni ham talab etadi. XXI asrda geografiya fan o'qituvchisi doimiy ilmiy izlanishda bo'lishi, talaba (o'quvchi)larga fanga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni tushuntirishda nazariy jihatlarini ilmiy tadqiqot ishlari manbalari va tadqiqotchilarning ilmiy gepotizalariga asoslanib etkazib berishi, ushbu nazariyalarning geografiya fani va ilmi hamda davlat va jamiyat hayotida tutgan rolini amaliy misollar yordamida etkazib berish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Geography Education Research Recommendations and Guidelines for Research in Geography Education: http://media.nationalgeographic.org/assets/file/NGS_RoadMap_GERC_6-21.pdf
2. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. *Theoretical & Applied Science*, 53(9), 79-82.
3. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(1), 272-274.
4. Maratov Temur Gayrat ug'li, Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology, *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 2020; 7(8). 16-22. <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/07/full-paper-scientific-theoretical-problems-of-perfect-human-category-in-the-psychology.pdf>
5. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 9(3), 2677-2684.
6. N.J. Eshnaev, T. G'. Maratov, G. Mirzaraximova. O'zbek milliy kino sanati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari. *Oriental Art and Culture* 2020. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-milliy-kino-sanati-va-madaniyatida-psihiprofilaktik-hizmat-tizimini-zhoriy-etish-masalalari>
7. Pustovoytov D.N. Formirovanie poznavatelnoy kompetentnosti u starsheklassnikov v protsesse obucheniya (na primere obucheniya predmetnoy oblasti «Matematika i informatika»): avtoref. dis. d-ra ped. nauk. / D.N.Pustovoytov – M.: 2015. – S.26.
8. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical

Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.

9. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayevo Nortozi Jumayevoch, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna, "DEFECTS IN SCIENTIFIC RESEARCH OF THE PROBLEMS OF SPIRITUAL AND MORAL CRISIS AND ITS SOLUTION", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6, Nov. 2020.

10. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayevo Nortozi Jumayevoch, and Kodirov Ikrom Davronovich, "PROBLEMS OF FORMATION OF LEARNING MOTIVES IN PUPILS", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6, Nov. 2020.

11. Vlasenko S.V. Sistema poznavatel'nykh proektov i ee vliyaniye na razvitiye poznavatel'noy kompetentnosti doshkolnikov / S.V.Vlasenko, N I. Pustovalova // Vektor nauki Tolyattinskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Pedagogika, psixologiya. -2013. - № 3 (14).

12. Vorovshikov S.G. Vnutrishkolnoye upravleniye razvitiem uchebno-poznavatel'noy kompetentnosti starsheklassnikov: dis. ... d-ra ped. nauk / S.G. Vorovshikov. – M., 2007. – S.416.

13. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentnosti kak rezul'tativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podkhoda v obrazovanii. / I. A. Zimnyaya - M.: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. – S.42.

14. Zaichenko N. U. Integrativniy podkhod v prepodavanii. Uchebnoye posobie. / N. U. Zaichenko - M.: Flinta, 2013. – S.23.

15. Efremova N.F. Kompetentsii v obrazovanii. Formirovaniye i otsenivaniye. Ucheb. Posobie. / N.F. Efremova – M.: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2012. – S.216.

16. Xutorskoy A.V. Klyuchevye kompetentsii i obrazovatel'nye standarti / A.V. Xutorskoy // Internet - jurnal «Eydos». - 2002. - 23 aprelya. - <http://eidos.ru/journal/2002/0423>.



17. Xutorskoy A.V. Kompetentnostniy podxod v obuchenii. Nauchno-etodicheskoe posobie. / A. V. Xutorskoy. — M.: Izdatelstvo «Eydos»; Izdatelstvo Instituta obrazovaniya cheloveka, 2013. — S.73.